



## O'ZBEKİSTONDA İCHKİ TURİZMNI RIVOJLANTIRISHDA TABİYİ RESURSLAR SALOHIYATI TUSHUNCHASI VA UNİNG İQTİSODIY TİZİMİNİ RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI

Baxriyeva Zarina Nasimovna

"Ipak Yo'li" turizm va madaniy me'ros xalqaro universiteti

ORCID: 0009-0003-7025-5236

[BaxriyevaZarina@bk.ru](mailto:BaxriyevaZarina@bk.ru)

**Annotatsiya.** Maqolada ichki turizmni rivojlanirishda tabiyi resurslar salohiyati tushunchasiga to'xtalib o'tilgan hamda uning iqtisodiy tizimini rivojlanirishdagi o'rni yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** rekreatsion resurslar, turistik salohiyat, moliyaviy resurslar, turitsik talab, turistik ehtiyoy.

## ПОНЯТИЕ ПОТЕНЦИАЛА ПРИРОДНЫХ РЕСУРСОВ В РАЗВИТИИ ВНУТРЕННЕГО ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ И ЕГО РОЛЬ В РАЗВИТИИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ

Бахриева Зарина Насимовна

Международного университета туризма и культурного наследия "Шелковый путь"

**Аннотация.** В статье рассмотрено понятие потенциала природных ресурсов в развитии внутреннего туризма и его роли в развитии экономической системы.

**Ключевые слова:** рекреационные ресурсы, туристский потенциал, финансовые ресурсы, туристический спрос, туристическая потребность.

## CONCEPT OF THE POWER OF NATURAL RESOURCES IN THE DEVELOPMENT OF DOMESTIC TOURISM IN UZBEKISTAN AND ITS ROLE IN THE DEVELOPMENT OF THE ECONOMIC SYSTEM

Bakhrieva Zarina Nasimovna

"Silk Road" International University of Tourism and Cultural Heritage

**Annotation.** The article examines the concept of the potential of natural resources in the development of domestic tourism and its role in the development of the economic system.

**Key words:** recreational resources, tourism potential, financial resources, tourism demand, tourism need.

### Kirish.

Turizm, bugungi kunning eng muhim iqtisodiy sohalaridan biri sanaladi. Shu boisdan, dunyoning ko'plab davlatlari tomonidan ushbu sohani yanada rivojlantirish, bu borada tegishli infrastrukturani jahon standartlari darajasida yaratish va sayyoohlар oqimini oshirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Tabiiy turitsik resurslar mintaqalarning turizm maqomini qatiy shakllantiradi. Biroq ulardan turistik maqsadlarda nazoratsiz va haddan tashqari foydalanish ularning iqtisodiy, ekologik va jismoniy kamayib ketishga, eng yomon holatda esa tanazzulga olib kelishi mumkin. Turistik mahsulotlarni ishlab chiqarish va iste'mol qilishni tashkil etish uchun zarur bo'lgan tabiiy resurslarni mamlakatimizning turli xil mintaqalaridan topish mumkin. Ammo ularni tabiiy shaklini saqlagan holda iste'molchilarga yetkazib berish yaratilayotgan turitsik mahsulotlarning jozibadorligini oshiradi.

### Adabiyotlar sharhi.

Tabiiy resurslarni uni ishlab chiqarish omiliga mos ravishda o'zgartirish, ya'ni tashkiliy va texnologik talablarga moslashtirish kerak. Mintaqada tabiiy turitsik resurslar asosida ichki turizmni rivojlantirish masalalari mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarining diqqat markazida bo'lib kelgan. Olimlar o'z ilmiy ishlarida turistik mahsulotlarni ishlab chiqarishni kengaytirish tabiiy resurslardan oqilona foydalanish asosida amalga oshirilishi kerak, bu esa ushbu resurslarning o'rnnini bosib bo'lmaydigan darajada kamayib ketishiga va atrof muhitning nomutanosibligiga olib kelmaydi, deb hisoblashadi.

Turitsik mahsulotni ishlab chiqarish va iste'mol qilishda tabiiy resurslarning o'rnnini hisobga olgan holda, Yefremov (2012) tabiiy sharoitlar iste'mol qadriyatlarini shakllantirish uchun moddiy manba sifatida namoyon bo'lishini, ular birgalikda turizm xizmatlarini (turizm mahsulotini) tashkil etishni ta'kidlaydi.

Rus olimi Xlebnikov (2013) hududning turistik rekreation kompleksi faoliyatining asosiy sharti uning resurs salohiyatida deb hisoblaydi. Hududning tabiiy va rekreation resurslarini ta'kidlab, ularni turistik mahsulotni ishlab chiqarish uchun barqaror resurslar deb tasniflaydi. Ammo bizning fikrimizcha, ushbu tavsif faqatgina o'rta va uzoq muddatli istiqbolda ba'zi tabiiy resurslar ulardan nazoratsiz va intensiv foydalanishning ko'payishi, atrof muhitni oqilona boshqarish talablariga rioya qilmaslik va amortizasiyani to'g'ri tiklamaslik tufayli muddatidan oldin tugaydi deb hisoblaymiz.

Bugungi kunda atrof-muhitni oqilona boshqarish bilan birga turizmni rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Levochkina (2013) turitsik talabni turistik resurslardan oqilona foydalanish, samarali kombinatsiyalarda birlashtirish, turitsik oqimlarni ko'paytiradigan turitsik xizmatlarni ko'rsatish texnologiyalarini shakllantirish bilan qondirish kerak degan nuqtai nazarni qo'llab quvvatlaydi.

Mahalliy turitsilar oqimining ko'payishi bilan turitsik faoliyatning tabiiy muhitiga ta'siri kuchayishi mumkin, tabiiy resurslarga va ularning iste'moliga antropogen ta'sir ham tezlashadi. Buning salbiy oqibatlarga olib kelmasligi uchun turizmning yangi samarali texnologiyalarini joriy etish va tabiiy resurslarga ta'sir etuvchi jararlarni optimal tartibga solish zarur.

Buning salbiy oqibatlarga olib kelishining oldini olish uchun turizmning samarali texnologiyalarini joriy etish va tabiiy resurslarga ta'sir etuvchi jarayonlarni optimal tartibga solish zarur. Ingliz olimlari Xettu va Razinlar (2020) diqqatini shunga qaratadilar. Ularning fikriga ko'ra, qirg'oq bo'yidagi kurortlarga nisbatan tabiiy resurslar va biologik xilma-xillikni saqlash turizmini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va turli turdag'i turistik obyektlar va kurortlarni loyihalash bosqichida qo'yilishi kerak bo'lgan vazifadir.

Artemeva (2009) e'tiborni turizm resurslarining ortib borayotgan differensiasiyasiga qaratadi. Ushbu olim turizmga yuqori turictik jozibadorlikka ega bo'lgan yangi resurslarni jalb qilishni nazarda tutadi. Tabiiy resurslarni farqlash jarayonining tezlashishi turizmning yangi

turlarini izlash va innovasion texnologiyalarni rivojlantirish natijasida yuzaga keladi. Ular orqali turitslar oqimini oshirish imkoniyati mavjud.

Ko'pgina olimlar turitsik resurslarning tasnifiga va uning tabiiy komponentiga e'tibor berishadi. Ayrim olimlar esa turizmni tashkil etishda mintaqaning tabiiy resurslari va uning alohida jozibali elementlarining yetakchi rolini qayd etadilar.

Ba'zi mualliflar tabiiy resurs hududning turitsik ixtisoslashuvning asosi bo'lgan turizm turlarini aniqlaydilar.

Masalan, Oborin (2018) tabiiy shifobaxsh omillarning rolini ta'kidlab, ular davolanishga ixtisoslashgan har qanday kurort va rekreatsiya zonasini hududi uchun asos ekanligini ta'kidlaydilar.

Chudnovskiy va Jukova (2014) «Turitsik resurslar turistik markazlarni qurish va ulardan foydalanishning zaruriy sharti bo'lib, turizmning turli turlari uchun turistik dasturlar va mahsulotlarni shakllantirish imkoniyatini yaratadi» deb hisoblashadi. Ushbu olimlar turizm turlari va mintaqqa relyefining xususiyatlari (tabiiy sharoitlar va resurslar) o'rtaida yaqin bog'liqlik mavjudligini ta'kidlaydilar. Bu resurslar atrof-muhitning tarkibiy qismlaridan birini ifodalaydi, shuning uchun ularning holatini yomonlashuvi butun atrof-muhit holatiga salbiy ta'sir qiladi.

Tabiiy resurslarni o'rganishda ba'zi mualliflar yirik shaharlar ekologik holati va shahar turizmi o'rtaisdagi munosabatlarni tahlil qiladilar. Tabiiy resurslarni o'rganishda ba'zi mualliflar yirik shaharlar ekologiyasi va shahar turizmi o'rtaisdagi munosabatlarni tahlil qiladilar.

Yaxshi ekologiya ularning boshqa tabiiy obyektlari (parklar, yashil maydonlar, piyodalar zonalari, favoralar va boshqalar) bilan birgalikda tabiiy jozibadorlikdan mahrum bo'limgan resurslarga yo'naltirilgan shaharlarni yaratish mumkin.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Tadqiqot jarayonida analiz va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli, qiyosiy va omilli tahlil, ilmiy abstraksiya, sosiologik so'rov va boshqa usullardan foydalanildi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Hududlarning turizm uchun qiymatini aniqlashda foydalaniladigan eng muhim tushunchalar «turitsik resurslar» va «turistik salohiyat» hisoblanadi.

Ushbu tushunchalarning o'xshashligiga qaramay, ular o'rtaida bir qator sezilarli farqlar mavjud. Mintaqaning makroiqtisodiy xususiyatlarini hisobga olgan holda, turizm salohiyatini sakkizta xususiy potensialiga ajratish mumkin:

1. Resurs (turistik resurslar bilan ta'minlanganlik).
2. Ishlab chiqarish (mintaqada turizm korxonalari xo'jalik faoliyatining umumiy natijasi).
3. Infratuzilmaviy (mintaqaning iqtisodiy va geografik joylashuvi va uning infratuzilma bilan ta'minlanishi).
4. Mehnat (mehnat resurslari va ta'lim darajasi).
5. Moliyaviy (turizmdan soliq tushumlari hajmi va mintaqadagi turizm korxonalarining rentabelligi).

Turistik salohiyatni baholash mintaqaning turizmini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan imkoniyatlari, vositalari va resurslarini, shuningdek, hozirgi vaqtida ularni rivojdantirish va foydalanish darajasini aniqlash uchun amalga oshiriladi.

Muayyan hududda turizm salohiyatini rivojlantirish yo'nalishlari va istiqbollarini aniqlash uchun quyidagilar zarur:

- potensialni aniqlash;
- potensialni baholash;
- resurslardan foydalanishning hozirgi darajasini baholash;
- rivojlanishning usuvor yo'nalishlarini belgilash;

- turizm salohiyatidan foydalanishni faollashtirish imkoniyatlarini baholash;
- resurslarni cheklovchi omillarni aniqlash;
- resurslarni cheklovchi omillar ta'sirini kamaytirish yo'llarini aniqlash;
- mintqada turizm sohasini hududiy tashkil etishning istiqbrolli modelini tayyorlash va joriy etish.

Mintaqada ichki turizmnri rivojlantirishda turizm resurslarini baholashnining asosi turizm resurslarini tahlil qilish hisoblanadi. Turizm resurslarini tabiiy-iqlimiyl, ijtimoiy-madaniy, tarixiy, me'moriy va arxeologik, ilmiy-ishlab chiqarish, ko'ngilochar, diniy va boshqa obyektlar va hodisalar deb hisoblaydi, ular insonning turizm ehtiyojlarini qondira oladi va ma'lum bir hududga turitsik maqsadlarda tashrif buyurishga sabab bo'ladi.

Turistik resurslarning eng muhim xususiyati uning jozibadorligi – resursing turistlarni jalb qilish qobiliyatining mavjudligidir.

Turitsik salohiyat deganda ma'lum bir hududda turizm faoliyatini tashkil etish uchun tabiiy, madaniy, tarixiy va ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarning butun majmui tushuniladi. Bundan tashqari turitsik salohiyat – bu mahalliy aholi uchun ma'lum noyob, qiziqarli obyektlarning ham mavjudligi tushuniladi. Hududlarning turistik salohiyati juda o'zgaruvchan bo'lib, u joylashgan mintaqaning ijtimoiy-madaniy shakllanish xususiyatlarga bog'liqdir.

### Xulosa va takliflar.

Turizm resurslarining potentsiali deganda foydalanilgan turistik resurslarning (ham an'anaviy, ham kontseptual) yig'indisi, potentsial davlatdagi turistik resurslarning yig'indisi va jozibador turizm mahsulotlarini shakllantirish uchun ishlatalishi mumkin bo'lgan manbalar tushunilishi kerak. Shunday qilib, turizm resurslarining salohiyati quyidagi jihatlarni aks ettiradi:

- turistik resurslarning mavjudligi, ularning ob'yekt turlari bo'yicha tuzilishi, shuningdek, hududdagi joylashuvi;
- turistik resurslardan foydalanish darajasi, ya'ni foydalanilgan turistik resurslar va potentsial (foydalanilmayotgan) holatda bo'lgan turistik resurslar ulushi;
- turistik resurslarni yuklash darajasi, ko'rsatish ob'ektlari sig'imi (o'tish qobiliyat) me'yorlariga erishish mumkinligi bilan tavsiflanadi.

Turizm infratuzilmasi - bu turistlarga turizm resurslaridan foydalanish va ulardan turistik maqsadlarda to'g'ri foydalanishni ta'minlovchi tuzilmalar, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari, shu jumladan telekommunikatsiyalar, yo'llar, tegishli turizm sanoati korxonalari (qayta ishlash, maishiy, energetika, shuningdek, hayotiy muhim) majmui.

Turizm va rekreasiya industriyasini qulay shart-sharoitlar yaratishda mintaqaga iqtisodiyotini barqarorlashtirish va rivojlantirishning harakatlantiruvchi kuchga aylanishi mumkin. Turitsik infratuzilmani (birinchi navbatda, transport, yo'llar, aeroportlar) rivojlantirishni ta'minlashi lozim bo'lgan davlat rolini qayta ko'rib chiqish zarur, bu esa alohida tarmoqlar va faoliyat sohalarini, jumladan, turizm industriyasini rivojlantirish uchun turtki bo'lib xizmat qiladi.

Tabiiy turizm resurslari – turitsik jozibadorlikka ega bo'lgan obyektlar va tabiat hodisalari hisoblanadi. Tabiiy turizm resurslarini qirg'oqbo'yi, tog' va pasttekislik hududlari misolida tahlil qilish mumkin.

Turizmnri rivojlantirish jarayonida ma'lum bir hudud aholisining etnik-madaniy xususiyatlari muhim rol o'ynaydi. Masalan, tog'li hududlarda aholining an'naviy madaniyatining yutuqlari sifatida turli xil uylar va yashash joylari (shu jumladan g'orlar) ko'rib chiqilishi mumkin.

**Adabiyotlar/Literatura/Reference:**

Khettou, D. (2020) Strategies for Sustainable Development of Tourism by Building Tourist Attractions (an Example of Algerian Coast) / D. Khettou, A. D. Razin. - DOI 10.7256/23108673.2020.3.34070 // Урбанистика. - № 3. - С. 91-101.

Артемьевая, О.А. (2009) Особенности ресурсного обеспечения туристской деятельности / О. А. Артемьева // Сервис в России и за рубежом.

Ефремов, А.В. (2012) Роль природных ресурсов в развитии туризма / А. В. Ефремов // Культура народов Причерноморья.

Левочкина Н.А. (2013) Ресурсы регионального туризма: структура, виды и особенности управления. – Омск: Издатель ИП Скорнякова Е.В., –188 с.

Оборин, М.С. (2018) Природно-ресурсный потенциал региона как основа развития лечебно-оздоровительного туризма / М. С. Оборин // Геополитика и экогеодинамика регионов.

Хлебников С.С. (2013) Формирование ресурсного потенциала туристской территории: авто-реф. дис. ... канд. экон. наук: 23.12.13. Сочи, С. 27.

Чудновский А.Д., Жукова М.А. (2014) Управление потребительскими предпочтениями в сфере отечественного туризма и гостеприимства, и основные направления реализации туристского продукта: учеб. пособие. М.: Федеральное агентство по туризму. С. 55.